

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA LEKSIK KO'NIKMALARNING AHAMIYATI

Farmonova Naimaxon Furqat qizi

Navoiy davlat universiteti doktoranti

E-mail: farmonovanaima490@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15104637>

Kalit soʻzlar: leksik koʻnikma, malaka, leksik material, leksik birlik, operatsiya, soʻz birikmasi, texnologiya.

Hozirgi rivojlangan davrda taʼlim jarayonida turli interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayoniga qoʻllashga boʻlgan eʼtibor va ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, chet tilini oʻrganishga boʻlgan ehtiyoj zamon rivojlangani, yangi texnologiyalarning kirib kelishi va ularni amalda qoʻllash zarurati sababli oshib bormoqda. Taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning chet tilini yanada samarali va sifatli oʻrganishiga zamin yaratib bermoqda. Shu oʻrinda chet tilini oʻqitish, taʼlimda turli metod va texnologiyalarni qoʻllash zamon talabiga aylanmoqda. Ingliz tili dunyo miqyosida eng koʻp oʻrganiladigan tillar qatorida birinchi oʻrinni egallaydi va bizning yurtimizda ham bu tilni oʻrganish kundan-kunga ommalashib bormoqda.

Ingliz tilini oʻrganish aslida maʼlum bir koʻnikma va malakalarni egallash hisoblanadi. Shu oʻrinda koʻnikma terminiga taʼrif berib oʻtish ayni muddao: “Koʻnikma” ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismidir.¹

Mavlonova hammualifligidagi adabiyotda esa koʻnikma atamasiga quyidagicha taʼrif beriladi: “Koʻnikma-shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyatidir”.² Bundan koʻrinib turibdiki, koʻnikma-biror faoliyatni samarali va toʻgʻri tashkil etish uchun zarur boʻlgan bilimlar, usullar va amaliy tajribaning yigʻindisidir.

Didaktikada koʻnikma atamasi bilan doim yonma-yon keladigan malaka atamasi ham chet tilini oʻqitishning muhim tarkibiy qismi sanaladi. J. Jalolov malakani ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat deb taʼriflaydi. Koʻnikma va malakani chet tillarni oʻqitishga tatbiq etib, koʻnikmani nutq faoliyatining avtomatlashgan qismi deyishni va nutq faoliyati turlarining **leksik, grammatik va talaffuz koʻnikmalari** tushunchalarini tavsiya etgan. Shu bilan birga nutq faoliyatining oʻzi **malaka** deyilishi maqsadga muvofiq degan fikrni ilgari surgan. Bundan ayon boʻladiki, ingliz tili koʻnikmalarini hosil qilish deganda ingliz tilining lugʻat boyligini, grammatik qonun-qoidalarini hamda soʻzlarning talaffuzini oʻrganish nazarda tutilar ekan. Shu boisdan ularning har biriga alohida toʻxtalib oʻtishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Metodik adabiyotlarda leksik koʻnikma masalalari ilk bor Y.I.Passov tomonidan koʻtarilgan³. Uning fikriga binoan leksikani oʻrgatish, fonetika va grammatikani oʻrgatish kabi, kerakli soʻzlarni tanlash va “malakaviy xarakteristikalar” darajasida ularni boshqa soʻzlar bilan aloqaga kiritib jumla tuzishni koʻzda tutadi. Malakaning bu umumiy xususiyatlari N.I.Passov tomonidan keng koʻlamda talqin etilgan.

¹ J.Jalolov, Chet tili oʻqitish metodikasi darslik, Oʻqituvchi-n, Toshkent-2012

² R.A.Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika, Toshkent-2018

³ Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. 2-е изд. –М.: Просвещение, 1991.- 222 с.

Leksik ko'nikma terminini metodist ko'pgina olimlar ilmiy izohlab berishgan. Ulardan S.F.Shatilov⁴ leksik ko'nikmaning ikki qismdan iborat metodik tushunchaligini, ya'ni nutqda so'zni qo'llash va nutq jarayonida so'z yasash deb ta'riflaydi. Olimning fikriga ko'ra, bu nutqiy leksik ko'nikma bo'lib, undab tasgqari lisoniy leksik ko'nikma turi ham mavjud. So'zni tahlil qilish, so'z yasash, so'z birikmasini tuzish kabilar esa leksik materialni ong ishtirokida qo'llash hisobiga lisoniy leksik ko'nikma ekanligi nazariy isbotlangan. Bundan ayon bo'ladiki leksik ko'nikmaning o'zi ham nutqiy va lisoniy leksik ko'nikmalarga bo'linar ekan.

Leksik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlarini o'rganish borasida birmuncha urinishlar bo'lganligi metodika faniga oid adabiyotlardan ma'lum. Bu, avvalo, I.V.Raxmanov⁵ tomonidan taklif qilingan "anglash-yodda tutish -muloqotda qo'llash" bosqichlar tizimidir. Shubhaga o'rin yo'qki, o'rganilayotgan leksikani har bir o'quvchi anglashi, yodda tutishi va muloqotda qo'llashi zarur. Lekin bunday bosqichlarga ajratish ba'zi bir e'tirozlarni keltirib chiqaradi: anglash - bu uzundan uzun jarayon va u yangi so'zlarni ishlatishga yo'naltirilgan mashqlarni bajarish paytida ham davom etadi; leksikani yodda saqlashni uni nutqda qo'llashdan ajratib bo'lmaydi, zero leksikani yodlash, uning alohida turlari inobatga olinmasa, asosan nutqda ishlatilishi orqali amalga oshadi⁶. Anglashimiz mumkinki, leksik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida yuqoridagi bosqichlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi va ba'zida bu bosqichlarni birvarakayiga amalga oshirishga to'g'ri kelishi mumkin.

O'rganuvchilarga chet tili darslarida nutq ko'nikma va malakalarini singdirish leksik materialni egallash asosida amalga oshadi. Metodist J.Jalolov uning uch bosqichdan iboratligini aytib o'tadi. Birinchi bosqichda til o'rganuvchilar yangi so'z bilan tanishishtiriladi; ikkinchi bosqichda tanishgan leksikani (so'zlarni) nutq jarayonida qo'llash o'rgatiladi va uchinchi bosqichda esa o'rganilayotgan so'z nutq faoliyati turlarida ko'nikma hamda malaka tarkibida o'zlashtiriladi. Leksik birlik yuzasidan bajariladigan ushbu ish bosqichlarini metodlarga taqqoslash mumkin: tanishish; mashq qilish va qo'llash.

Tanishish bosqichida so'zning shakli, ma'nosi va qo'llanilishi yuzasidan ishlar amalga oshiriladi. Bunda ko'rgazmali vositalardan, joiz bo'lsa ona tiliga tarjima qilishdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'nikma hosil qilish bobida mashq qilish bosqichining ahamiyati juda ulkan hisoblanadi. Leksik birlik ko'nikmaga aylanishi uchun o'rganilayotgan so'zni bir joyda turli birliklar bilan ishlatish yoki har xil o'rinlarda yangidan yangi so'z birikmalari hosil qilish mashqlari bajariladi.

Leksika ko'nikmalarini shakllantirishda mashq qilish bosqichidagi asosiy ishlar quyidagilar:⁷

1. So'z, so'z birikmasi va gapni o'qituvchi nutqiga taqlidiy aytish.
2. Yangi so'z ishtirokida so'z birikmalarini og'zaki tuzish.
3. So'zni turli nutq namunalarida qo'llash.
4. So'zni ko'rish orqali idrok etish, matn ma'nosiga bog'lab biriktirish va o'qish.
5. Leksik birlikni bosma matnga tayanib, mashqda o'zlashtirish.
6. So'zni daftarga ko'chirib yozish.

⁴ С.Ф.Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе.-Лю: Просвещение, 1977, 97-bet

⁵Ракманов И.В. Методика преподавание немецкого языка. –М.: Изд.-АПИ РСФСР, 1956.-297-с.

⁶ „Jalolov J. CHet til o'qitish metodikasi. –Toshkent. "O'qituvchi"-2012. 366-bet.

⁷ Jalolov J. CHet til o'qitish metodikasi. –Toshkent. "O'qituvchi"-2012. 162-bet.

7. Yozma vazifalarni sinfda va uyda bajarish.

Egallangan bilimlarni ko'nikmaga aylanishi uchun yuqorida keltirib o'tgan mashqlarimizni uzluksiz, izchillikda asosida bajarish va bilimlarni mustahkamlash talab etiladi. A.N.Leontyev bejizga "mustahkamlangan operatsiyalar"ni ko'nikma deb atamagan.

Leksikaning qo'llanilishi ko'nikma hosil qilishning so'nggi bosqichi bo'lib, ma'nosi ochilgan va nutqda ishlatila boshlangan so'zning nutq jarayonida erkin ishlatilishi ko'nikmalardan malakaga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ya'ni bunda endi o'rganuvchi mashq qilishdan nutq amaliyotiga o'tib, fikr bayon qilishda ong ishtirokisiz leksikani ishlatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. J.Jalolov, Chet tili o'qitish metodikasi darslik, O'qituvchi-n, Toshkent-2012.
2. R.A.Mavlonova, N.H. Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika, Toshkent-2018.
3. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению.2-е изд. – М.: Просвещение, 1991.
4. С.Ф.Шатилов. Методика обучения немецкому языку в средней школе.-Л.: Просвещение, 1977.
5. Рахманов И.В. Методика преподавание немецкого языка. –М.: Изд.-АПН РСФСР, 1956.
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7069702>